

TOSHKENT VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



TOSHKENT VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKIOTLAR DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOT

*2022-yil 1-noyabr holatiga ko'ra
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*


Tadbirkorlik subyektlari iqtisodiy rivojlantirish, aholi bandligi va daromadlarini oshirishda muhim omildir. Ushbu soha vakillarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida, oxirgi yillarda Prezidentimizning ko'plab farmon va qarorlari qabul qilindi.

Jumladan, tadbirkorlik faoliyatini davlat ro'yxatidan o'tkazish, turli ruxsatnomalar olish va boshqa ko'plab xizmatlar tartib-qoidalari soddalashtirildi. Bu borada qulaylik yaratish uchun Davlat xizmatlari agentligi va uning hududiy markazlari tashkil etildi. Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil (Biznes-ombudsman) devoni tashkil qilindi.

Barcha hududlarda tadbirkorlar murojaatlarini qabul qilib, hal etishga ko'maklashadigan Bosh vazir qabulxonalari tashkil etildi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi faoliyati yo'lga qo'yildi. Tijorat banklari tomonidan tadbirkorlarga ajratilayotgan kreditlar hajmi oshdi.

Oxirgi yillarda hukumatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini yanada rivojlantirish va barqaror faoliyat ko'rsatishini ta'minlash maqsadida yaratib berilayotgan shart-sharoitlar va qulayliklar natijasida faoliyat ko'rsatayotgan hamda yangi tashkil etilayotgan korxonalar va tashkilotlar soni yildan-yilga sezilarli ravishda oshib bormoqda.


Korxonalar va tashkilotlar to'g'risidagi mazkur ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida, 2022- yil 1-noyabr holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarsiz) shakllantirildi.



Mamlakatimizda qulay ishbiarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiq qilinmoqda. Bu esa, aholi hamda xorijiy investorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1- noyabr holatiga ko'ra, ming birlikda va o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati bilan)



Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni
 (tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha
 2022- yil 1-noyabr holatiga ko'ra, birlikda)

36 726



Mas'uliyati cheklangan jamiyat

4984



Oilaviy korxonona

202



Unitar korxonona

6198



Xususiy korxonona

48




Aksiyadorlik jamiyati

314




Boshqa korxonalar


Faoliyat ko'rsatayotgan korxonona va tashkilotlar soni
 (iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda)



Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni (iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, yanvar-oktabr oylarida)




Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni (yanvar-oktabr oylarida, birlikda)






Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar (1- noyabr holatiga ko‘ra, birlikda)

Jami faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni o‘tgan yilning shu davriga nisbatan **2,5 foizga oshdi**




■ Kichik tadbirkorlik subyektlari ■ Mikrofirmalar ■ Kichik korxonalar



■ Dehqonchilik, chorvachilik, ovchilik va bu sohalarda xizmat ko‘rsatish

■ O‘rmon xo‘jaligi


■ Baliq xo‘jaligi




Sanoat yoʻnalishida faoliyat koʻrsatayotgan
korporatsiya va tashkilotlar soni
(1- noyabr holatiga koʻra, birlikda)



Jami faoliyat
koʻrsatayotgan sanoat
korporatsiya va
tashkilotlarning
umumiy soni oʻtgan
yilning shu davriga
nisbatan 2,2 foizga
oshdi



■ Kichik tadbirkorlik subyektlari ■ Mikrofirmalar ■ Kichik korxonalar



460



Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

9 094



Ishlab chiqarish sanoati

56



Elektr, gaz, bugʻ bilan taʼminlash va havoni konditsiyalash

185



Suv bilan taʼminlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yigʻish va utilitatsiya qilish


2022- yil 1- noyabr holatiga koʻra, sanoat korxonalarini va tashkilotlarini soni 9 795 tani tashkil etib, oʻtgan yilning mos davriga nisbatan 2,2 %ga oshdi.

Jami sanoat korxonalarini va tashkilotlarini koʻpayishining asosiy omili – (oʻtgan yilning mos davriga nisbatan), ishlab chiqarish (qayta ishlash) sanoatida – 1,7 %ga (jami sanoatdagi ulushi 92,8 %), togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash – 1,1 %ga (jami sanoatdagi ulushi 5,2 %), elektr, gaz, bugʻ bilan taʼminlash va havoni konditsiyalash oʻzgarishsiz (jami sanoatdagi ulushi 0,6 %) va suv bilan taʼminlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilitatsiya qilishning 2,7 %ga (jami sanoatdagi ulushi 1,8 %) kamaygan.

Qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda)




Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **2,7 foizga oshdi**




Kichik tadbirkorlik subyektlari soni




2,7 foizga oshdi



Mikrofirmalar




Kichik korxonalar



Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar




4,6 foizga oshdi



Oilaviy korxonalar




6,9 foizga oshdi




Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni




O'tgan yilga nisbatan **23,6 foizga oshdi**



Xususiy korxonalar



Qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda)




2022- yil 1- noyabr holatiga ko'ra, qurilish sohasida korxonalar va tashkilotlar soni 4051 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 2,6 %ga oshdi. Jami qurilish sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili bu – bino va inshootlar qurishda – o'tgan yilga nisbatan 4,1 %ga (jami qurilishdagi ulushi 53,3 %), fuqarolik obyektlarini qurish – 23,7 %ga (jami qurilishdagi ulushi 9,4 %), korxonalari sonining ortirishidir, shuningdek, ixtisoslashtirilgan qurilish ishlarining 6,6 %ga (jami qurilishdagi ulushi 37,3 %) kamayishidir.

Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda)

2022- yil 1- noyabr holatiga ko'ra, savdo sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni 16 210 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 10,2 %ga oshdi.

Jami savdo korxonalar va tashkilotlari soni ko'payishining asosiy omili – avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdoda o'tgan yilga nisbatan – 6,5 %ga (jami savdodagi ulushi 66,6 %), avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdoda o'tgan yilga nisbatan – 19,8 %ga (jami savdodagi ulushi 26,3 %), avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlashning o'tgan yilga nisbatan – 15,0 %ga (jami savdodagi ulushi 7,1 %) o'sishidir.



• Sog'liqni saqlash sohasidagi faoliyat

859



• Yashash uchun joy bilan ta'minlangan holda parvarishlash

33



• Yashash uchun joy bilan ta'minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish

31



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(2022- yil 1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda)



395

yashash bo'yicha xizmatlar



3 628


Oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar


2022- yil 1- noyabr holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni 4 023 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 4,5 % ga oshdi.

Jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili – oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar – 4,2 % ga (jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 90,2 %), yashash bo'yicha xizmatlarning – 6,7 % ga (jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 9,8 %) o'sishidir.



Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni
(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda)





Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2022- yilning 1- noyabr holatiga ko'ra 5498 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 472 taga yoki 9,4%ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 4 984 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 387 taga yoki 8,4 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2022- yilning yanvar-oktabr oyida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 741 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 194 taga yoki 20,7 %ga kamayganligini ko'rish mumkin.


Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni


(1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda)

Tashkiliy huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2022- yilning 1- noyabr holatiga ko'ra 39 969 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2 674 taga yoki 7,2 %ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 36 726 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 3 024 taga yoki 9,0 %ga oshganligini ko'rish mumkin.

2022- yilning yanvar-oktabr oylarida yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 4697 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 513 taga yoki 9,8 %ga kamayganligini ko'rish mumkin.






Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar soni 2022- yil 1- noyabr holatiga ko'ra, 1 688 tani tashkil etib, ulardan 1 603 tasi yoki 95,0 % faoliyat ko'rsatmoqda. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 130 taga yoki 8,3 %ga oshganligini ko'rish mumkin.

2022- yilning yanvar-oktabr oylarida viloyatimizda 193 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni (iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yanvar-oktabr oylarida, birlikda)



	Jami	shundan:	
		qo'shma korxonalar	xorijiy korxonalar
Toshkent viloyati	1688	741	947
Oqqo'rg'on t.	20	6	14
Ohangaron t.	90	34	56
Bekobod t.	10	6	4
Bo'stonliq t.	72	38	34
Bo'ka t.	16	5	11
Quyichirchiq t.	53	26	27
Zangiota t.	218	84	134
Yuqorichirchiq t.	128	57	71
Qibray t.	183	81	102
Parkent t.	31	12	19
Piskent t.	27	12	15
O'rta Chirchiq t.	107	39	68
Chinoz t.	31	13	18
Yangiyo'l t.	98	33	65
Toshkent t.	91	49	42
Nurafshon sh.	76	28	48
Olmaliq sh.	55	16	39
Angren sh.	113	71	42
Bekobod sh.	32	20	12
Ohangaron sh.	53	25	28
Chirchiq sh.	109	62	47
Yangiyo'l sh.	75	24	51

Statistik ko‘rsatkichlarga izohlar


Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri axborot-ma‘lumotnoma tusidagi, vaqti-vaqti bilan yangilab boriladigan ma‘lumotlardan iborat bo‘lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta‘minlaydi.

Ro‘yxatga olingan korxonalar va tashkilotlar – ro‘yxatdan o‘tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrda mavjud bo‘lgan yuridik shaxslardir (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar – ro‘yxatdan o‘tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo‘jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to‘g‘risidagi ma‘lumot kelib tushmagan yuridik shaxslardir.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar – ro‘yxatdan o‘tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda, yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslardir.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar – O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24- avgustdagi “Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o‘tish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 275- son qarorining 1- ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi.



Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Davlat statistika qo'mitasining www.stat.uz rasmiy saytida real vaqt rejimida, so'ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.

Toshkent viloyati statistika boshqarmasi

Statistik registrnlarni yuritish bo'limi

Tel.: (71) 202-86-83